

## “DUNYONING ISHLARI” ASARIDAGI MILLIY RUHNING RUSCHA TARJIMASIDA BERILISHIGA DOIR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10359894>

**Mohinur AZIMQULOVA,**

TDSHU 1-kurs talabasi

Tel: +998991671235, e-mail: mokhinurazimkulova@gmail.com

**Ilmiy rahbar:**

filol.f.d., prof. v.b. Xayrulla Hamidov

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asaridagi milliy ruhning ruscha tarjimada berilishi masalalari ko‘rib chiqiladi.

*Kalit so‘z va iboralar:* badiiy asar, tarjima, milliy ruh.

*Аннотация:* В данной статье рассматриваются вопросы передачи национального духа оригинала в русском переводе произведения Уткира Хашимова «Дела земные».

*Ключевые слова и выражения:* художественное произведение, перевод, национальный дух.

*Abstract:* This article discusses the issues of transmitting national spirit in the Russian translation of Utkir Khashimov’s work “Earthly Affairs”.

*Key words and expressions:* work of art, translation, national spirit.

Xalqlar orasidagi madaniyat ko‘prigi hisoblangan badiiy tarjima urf-odati, milliy an‘analari bir-biriga ancha uzoq bo‘lgan o‘zbek va rus xalqlari orasidagi munosabatlarning mustahkamlanishiga ko‘mak berib kelmoqda. Albatta, bunda badiiy tarjimaning alohida o‘rni bor. Albatta, tarjimalarning sifati, ularning badiiy sa-viyasi, asl nusxadagi milliy ruh, badiiylik va boshqa jihatlarning qayta yaratilishi, tar-jimon mahorati muhim masalalardan hisoblanadi.

Tarjimashunos olim E.Ochilov shunday yozadi: “Badiiy asarda tasvirlangan milliy xususiyatlarni tarjimada ham aynan saqlab qolish kerakmi yoki o‘zgartirish – tarjima tilini mansub xalq yashayotgan zaminga ko‘chirish kerakmi degan masala hali-hanuz o‘zining uzil-kesil yechimini topmagan”.

Insoniyat yaralibdiki, o‘z vatanini onasiga qiyoslaydi. Zero, dunyoda undan go‘zal inson yoq. Onadan halol, onadan kechiruvchan va mehribon inson yo‘q. Mavjudot borki, uning o‘z vatani bor. Vatan –bu biz yashab turgan zamin, moviy osmon, har kuni bizni charaqlab kutib oladigan quyoshdir.

Adabiyot insonda vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otuvchi vosita hisoblanadi. O‘zbek xalqining ardoqli yozuvchisi, badiiy adabiyotimizda o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lgan O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida vatan mavzusiga murojaat qilgan. Uning

asarlarida vatanga muhabbat ulug‘lanadi. Adibning «Dunyoning ishlari» [1] qissasi buning yaqqol misolidir. Ushbu asar dunyo yuzini ko‘rgandan keyin tez orada keng kitobxon ommasiga tanildi, qisqa vaqt ichida rus tiliga [2], 2012 yilda esa xitoy tiliga ham o‘g‘irilib, nashr etildi. 2013 yilda asar turk tiliga ham o‘g‘irilib, Istanbulda nashr etildi [3]. Bu – dunyo adabiyot ahli va kitobxonlarining o‘zbek adabiyoti, o‘zbek xalqi maishiy turmushi, urf-odat va an‘analariga bo‘lgan qiziqishidan dalolat beradi.

Tarjima, avvalambor, tarjimonning salohiyati va uning tildan qanchalik to‘g‘ri foydalanish qobiliyatini ochib beradi. «Dunyoning ishlari» asarida vatanga muhabbat tuyg‘usi alohida o‘rin egallaydi. Asar milliylik chuqur singdirilganligi bilan alohida ajralib turadi. Uning qahramonlari o‘zbek xalqi, muayyan muhit (shahar, mahalla)da yashab, o‘zi hayot kechirayotgan joyning tabiatiga ko‘ra tirikchilik qiluvchi o‘zbek xalqidir. «Asarda hamma narsa, jumladan, qisqa tarixiy davr, xalqimizning axloqiy qarashlari, madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlari, an‘ana va qadriyatlari; kiyim-kechaklari, pazandachiligi va boshqalar o‘z aksini topgan. Asarda ularning barchasini ifodalaydigan so‘zlar, bu so‘zlar asosida vujudga kelgan iboralarga keng o‘rin berilgan» [4,50].

O‘.Hoshimov o‘z asarlarida tasvirlangan har bir voqeadan falsafiy xulosa chiqarish, voqealarni lirik ta’sirchanlik bilan ifodalash, badiiy usullarning xilma-xilligiga erishishga, voqealar bayoni davomida fikriy paralellar o‘tkazib borish, va, albatta, milliylikni to‘la va haqqoniy tasvirlashga harakat qilgan. Asarlarning badiiyligi voqealar tafsifi, manzaralarning haqqoniyligi, tasvirning chuqurligi, badiiy detallarning ifodali bo‘lishi, tilning jonli, sodda va tabiiyligida yorqin namoyon bo‘lgan.

Ushbu romanga xos bosh xususiyat uning chuqur milliylik ruhi bilan sug‘orilganligi, asar qahramonlarining oddiy mehnatkash o‘zbeklar ekanligidir. Zero asarda bironta syujet yo‘qki, unda milliylikka xos bir detal bo‘lmasa. Dalil sifatida asardan olingan bir parchani tahlil qilib ko‘ramiz: *“Onam beshigim ustida alla aytganini eslay olmayman. Esimni taniganimda beshikda yotmaydigan bo‘lgan edim. Biroq oyim ukamga alla aytganini eshitganman... Qish kechalari sandalga suqilib tiqilishib yotardik. Uy nimqorong‘i. Piligi pastlatib qo‘yilgan chiroq xira nur sochadi. Shiftda lampa shisha uchidan chiqqan nur doirasi ko‘rinadi. Chiroq doim bir joyda turgani uchun shiftning o‘sha yeri sarg‘ayib qolgan. Hammayoq jimjit... Ukamning beshigi g‘irchillaydi. Onam alla aytadi: Alla, bolam uxlay qol-a, alla, Quchoq‘imda orom ol, alla... Yo‘q, bu qo‘shiq emas. Oyimning ovozida qandaydir boshqa narsa bor. Mungmi, iltijomi... Tog‘lardagi shunqorim-ey, alla, Beshikdagi qo‘chqorim-ey, alla... Ukam ovunib qoladi. Oyimning o‘zi ham beshikni quchoqlagancha mudrab ketadi. Bir mahal... Ukam uyg‘onadi, beshik yana g‘ijiraydi. Oyim ham cho‘chib ko‘zini*

*ochadi. Beshikni ohista tebratadi: Yigitlarni sardori bo‘l, jonim-a, Yuragimni madori bo‘l, alla...*” [1,203].

Asardagi birgina shu monologda milliylik o‘zining butun qirralari bilan namoyon bo‘lgan. Parcha mazmunida milliylik tabiat tasviri va interer uyg‘unligida o‘z ifodasini topgan. Chunki faqat o‘zbek bolasi “esini tanigunga qadar” ona allasini eshitib beshikda yotgan. Faqat serfarzand o‘zbek oilasida jo‘jabirday jon “sandalgas qilishib, tiqilishib” yotishgan. Faqat o‘zbek bolasi uyqusi buzilganda “beshigini g‘irchillatib” onasidan “alla so‘ragan”, o‘zbek onasi “bir parcha et”ni “beshikdagi qo‘chqor”, “tog‘lardagi shunqor”ga o‘xshatgan. O‘zbek bolasi onasining “mungli, iltijoli” ovozdin ovunib, yana zum o‘tmay “beshikni g‘ichirlatib” onasini uyg‘otgan, o‘zbekning onasi “cho‘chib ko‘zini ochgancha beshikka yopishib, farzandining “barcha yigitlarning sardori bo‘lishi, yuragiga mador bo‘lishi”ni tilagan. “Piligi pastlatib qo‘yilgan, doim bir joyda turib shiftning bir yerini sarg‘aytirib yuborgan chiroq xira nuri bilan uyni nimqorong‘i yoritishi” ham o‘tgan asrning 50-60-yillaridagi o‘zbek oilasiga xos holat [4,51].

Endi ana shu parcha ruscha tarjimada qanday berilganligiga e‘tibor qaratamiz: *“Я не помню, пела ли мат колыбелную над моей люлкой. Но отлично помню, как мат пела колыбелную младшему братишке, много раз слышал. Зимними вечерами ми, дети, лежали рядишком возле сандала. В комнате царил полумрак. Тускло светила керосиновая лампа. Лампа всегда стояла на одном месте, и на потолке образовался постепенно желтый круг. В доме тихо... Тихо покачивается, поскрипывает люлка. Мат поёт колыбелную: Спи, сынок мой, спи, алла, Усни в моих объятиях, алла...– Нет, это не песня. В голосе матери нечто такое, что хватает за душу, может, тоска, может молба... Ты мой орёл, парящий в небесах над горами, алла! Ты мой жеребёнок, спящий в люлке, алла ... Братишка засыпает. Мат, обнимая люлку, тоже засыпает. Братишка просыпается. Снова скрипит люлка. Снова мат покачивает ее. Буд первым среди джигитов, сын мой, алла... Буд опорой моему сердцу, алла...”* [2,178-179]. Ruscha tarjimada “beshik” so‘zi, asosan, “люлка” deb, ba‘zi o‘rinlarda esa “колыбелная” deb berilar ekan, “sandal” – “sandal”, “alla” – “alla” shaklida bir xos so‘z sifatida qoldiriladi. Tarjimada beshikdagi “qo‘chqor” – “жеребёнок” (toychoq) deb o‘girilar yoki o‘zbek va turk xalqlarida o‘g‘il bolalarga nisbatan qo‘llaniladigan “qo‘chqor” so‘zi kuch-qudrat timsoli hisoblanar ekan, ruslarda onalarning o‘z farzandlarini “qo‘chqor” deb erkalatmasliklari, ruslarda “baran” (ya‘ni “qo‘chqor”) so‘zi haqorat sifatida qabul qilinishi inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarining rus va boshqa tillarga qilingan tarjimalari ustida chuqur, ko‘p qirrali tadqiqotlar olib borishimiz, nashr etilgan tarjimalarga ob‘ektiv, xolis, va albatta, professional baho

berishimiz lozim. Shu bilan birga, ushbu mo‘jaz maqolamiz kelajakda olib borilajak tadqiqot ishimizning debochasi bo‘ladi, degan umiddamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):**

- [1] – Ношимов Ў., “Дунёнинг ишлари”, қисса, хитой тилига Н. Валиева таржима қилган. –Т., “Press improve”, 2012, 463 бет.
- [2] – Хашимов У., Дела земные, повест, авторский перевод, Ташкент, Изд-во лит-ры и искус-ва им. Г. Гуляма, 1988. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com) кутубхонаси
- [3] – Наşимов Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü, Bilgeoğuz Yayınevi, İstanbul, Mart 2014, 206 s.
- [4] – Ҳамидов Хайрулла, Ўткир Ношимов асарлари турк тилида. – Т., 2020. – 144 б.

